



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI MA'NAVIYATINI
SHAKLLANTIRISHDA HADISLAR ASOSIDA YARATILGAN HIKOYA VA
RIVOYATLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Xoshimova Hamida Bositovna

Yangi asr universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Email: xoshimovahamida@gmail.com

Tel: 998 88 491 92 30

Ilmiy rahbar: Qambarova Risola Xusniddin qizi

Yangi asr universiteti, "Maktab va maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Maktab ta'limining ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishdagi o'rni hamda axloqiy tarbiya berish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloq-odob me'yorlarini shakllantirishda hadislar asosida yaratilgan hikoya va rivoyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, interfaol va innovatsion metodlar, jumladan, didaktik o'yinlar va klaster metodidan foydalanish orqali o'quvchilarda mas'uliyat, mehr-shafqat, halollik, o'zaro hurmat kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirish yo'llari asoslab berilgan. Maqolada taklif etilgan metodlar o'quvchilarning hissiy ongini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish hamda axloqiy xulq-atvorni shakllantirishda samarali ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, hadislar asosidagi ta'lim, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, axloq-odob.

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы формирования духовно-нравственного воспитания у учащихся в процессе начального образования. Проанализирована роль школьного образования в развитии духовных ценностей, а также проблемы, возникающие в процессе нравственного воспитания. В исследовании показаны педагогические возможности использования рассказов и преданий, созданных на основе хадисов, в формировании норм нравственного поведения у учащихся начальных классов. Кроме того, обоснованы пути развития таких нравственных качеств, как ответственность, милосердие, честность и взаимное уважение у учащихся посредством применения интерактивных и инновационных методов, в частности дидактических игр и



кластерного метода. В статье подчёркивается, что предложенные методы эффективны для развития эмоционального сознания учащихся, повышения способности к самостоятельному мышлению и формирования нравственного поведения.

Ключевые слова: начальное образование, нравственное воспитание, духовные ценности, обучение на основе хадисов, дидактические игры, интерактивные методы, инновационный подход, нравственность.

Annotation. This article addresses the issues of forming moral and spiritual education among pupils in the process of primary education. The role of school education in the development of moral values, as well as the challenges encountered in the process of moral upbringing, are analyzed. The study highlights the pedagogical potential of using stories and narratives based on hadiths in shaping moral and ethical norms among primary school pupils. In addition, the article substantiates ways to develop such moral qualities as responsibility, compassion, honesty, and mutual respect through the use of interactive and innovative methods, including didactic games and the cluster method. It is emphasized that the proposed methods are effective in developing pupils' emotional awareness, enhancing their independent thinking skills, and fostering moral behavior.

Keywords: primary education, moral education, spiritual values, hadith-based education, didactic games, interactive methods, innovative approach, morality.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni hozirgi kunda ma'naviyatini shakllantirishda hamda axloqiy tarbiya berishda hadislarini o'qitish, o'rgatish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bir necha asrlar mobaynida islom ta'limi tog'ri talqinini yoshlarimiz qalbiga qanday singdirish asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada ham yosh avlodimizni xulq-atvorini hadislar orqali didaktik o'yinlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanib ta'lim berishni singdirish muammo sifatida qo'yilgan.

Bugungi kunda jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda maktab ta'limining o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori bo'lib, bu davrda o'quvchilarda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari va hissiy ong shakllanadi. Biroq axloqiy tarbiya jarayonida turli pedagogik va psixologik qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli mazkur jarayonda samarali vosita va metodlardan foydalanish muhim



ahamiyatga ega. A. D. Leontiev o'zining psixologik tadqiqotlarida shaxsiyatning shakllanish jarayonida ijobiy axloqiy fazilatlarning muhimligini ta'kidlaydi [1].

Asosiy qism. Ta'lim jarayonida hadis, hikmatli so'zlar va ibratli rivoyatlardan foydalanish masalasi bir necha tadqiqotchilar tomonidan turli jabhalarda o'rganilgan. Jumladan, hadislar va didaktik rivoyatlar dars jarayonining bir qismi, asosan, kirish qismi sifatida ko'rib chiqilgan [4]. O'quvchilarga axloqiy tarbiya berish jarayonida Imom Buxoriy va Yassaviyning asarlariga murojaat etgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida, o'tilayotgan mavzularga mos bo'lgan hikmatli so'z, aforizmlar va hadislardan foydalanish yaxshi samara berishi asoslab berilgan [5]. Ushbu maqola masalaga yangicha yondashuvni taklif qilgan holda, hikmatli so'z va hadislardan nafaqat nazariy tarbiya jarayonlarida, balki ular asosida didaktik o'yinlar tashkil etishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga axloq-odob me'yorlarini singdirishda hadislar asosida yaratilgan hikoya va rivoyatlardan foydalanish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi. Hadislar insonparvarlik, halollik, mehr-shafqat, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgani bilan ajralib turadi. Ushbu axloqiy g'oyalar hikoya va rivoyatlar shaklida berilganda, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda idrok qilinadi va ongida mustahkam o'rtnashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash, mas'uliyat, hamdo'stlik, mehr-shafqat, halollik hamda o'z-o'zini hurmat qilish kabi axloqiy sifatlarni rivojlantirishda o'qituvchining interfaol va innovatsion metodlardan foydalanishi muhim sanaladi. Bunday metodlar o'quvchilarning hissiy bog'lanishini kuchaytirib, ularni faol o'quv jarayoniga jalb etadi. Interfaol yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirib, axloqiy tushunchalarni hayotiy vaziyatlar orqali anglashiga yordam beradi.

Hadislar asosida yaratilgan hikoya va rivoyatlardan foydalanish asosan 3–4-sinflarda samaraliroq amalga oshiriladi, chunki bu yosh davrida o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash unsurlari shakllana boshlaydi. 1–2-sinflarda esa axloqiy tarbiyani didaktik o'yinlar orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O'yin faoliyati boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarning yetakchi faoliyati bo'lib, u axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish zarur. Masalan, "Xulq-atvor tablosi" didaktik o'yini orqali o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish amalga oshiriladi. Ushbu o'yinda o'quvchilarning yaxshi xatti-harakatlari belgilar (yulduzcha, rangli belgilar) orqali baholanib, ularning ijobiy xulq-atvori mustahkamlanadi. Yulduzchalarning yakunda



bir butun tasvirni hosil qilishi o'quvchilarda jamoaviylik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Shuningdek, "Yaxshi va yomon" kartalari asosida tashkil etilgan didaktik o'yinlar o'quvchilarning axloqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu o'yinda o'quvchilar turli xatti-harakatlarni tahlil qilib, ularni yaxshi va yomon guruhlariga ajratadilar. Bu jarayonda hadislar mazmuniga tayanish o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni diniy-axloqiy qadriyatlar bilan bog'lashiga imkon yaratadi.

Axloqiy tarbiya jarayonida klaster metodidan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Ushbu metod yordamida o'quvchilarning "axloq" tushunchasi haqidagi tasavvurlari aniqlanadi va tahlil qilinadi. O'quvchilar axloqiy sifatlar haqidagi fikrlarini erkin ifoda etib, eng muhim deb hisoblangan axloqiy ko'rsatkichlar umumlashtiriladi. Bu esa axloqiy tarbiya jarayonini tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu didaktik o'yinni dars davomida qo'llash asosiy maqsad o'quvchilarga hadislar va hadislariga bog'lagan holda odob axloq ko'rinishlarini o'quvchilarga singdirish, maktab yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiyani yuksak ko'rinishlarini singdirishdan iborat.

Ma'naviy qadriyatlarimizni shakllantirishda maktab ta'limning ahamiyati katta. Axloqiy tarbiya berish jarayonida ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga axloq odob namunalarini shakllantirishda maktab darslarida mavzularga oid hadislar asosida yaratilgan rivoyatlardan foydalanib o'qitish usullarini foydalanish mumkinligini ko'rib chiqishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni fikrlashga ma'suliyat, hamdo'stlik, mehr-shafqat, halollik, o'z-o'zini hurmat qilish hissiy ongni rivojlantirishda maqsadida o'qituvchi interfaol metodlardan yoki innovatsion usullardan foydalanishi mumkin. Bu kabi innovatsion metodlardan foydalanishni asosiy maqsad - boshlang'ich sinf o'quvchilarda axloqiy tarbiyani va hissiy bog'lanishni shakllantirish hamda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga dunyoqarash kengaytirishga yordam beradi. Hadislar asosida yaratilgan hikoya va rivoyatlardan foydalanish 1 va 2 sinflarga nisbatan 3-4 sinflarda ko'proq amalga oshiriladi, Shu bois 1 va 2 sinflarda o'qitishning bir necha vositalar asosida o'yinlar shaklida tashkil etish lozim.

Xulosa. Hadislar asosida yaratilgan hikoyalar va rivoyatlardan ishtirok etgan zamonaviy metodlardan foydalanib, tarbiya berilganda axloqiy xususiyatlarni yanada chuqurroq jihatdan rivojlanishning samaradorlik ko'rsatkichi ancha yuqori natijalarni beradi. O'quvchilarda axloq deganda qanday tasavvurga ega ekanligini bilish maqsadida interfaol metodlardan foydalanib, axloq haqidagi tushunchalar o'rganiladi va axloqiy tarbiya tushunchasi shakllantirishda hadislar asosida yaratilgan hikoya va



rivoyatlardan foydalanib o'quvchilarda axloqiy xususiyatlarni shakllantirishda yanada takomillashtirish [3]. Maktab yoshidagi o'quvchilar qanday axloqiy sifatga ega bo'lishi kerakligi haqida klaster metodi orqali o'quvchi yoshlarni axloqiy sifatlatlar deganda qanday tushunchaga ega bo'lishlik haqida yozib chiqishadi va eng ko'p tanlangan axloqiy sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilinadi. Bu kabi didaktik o'yinlar bolalar uchun qiziqarli va foydali bo'lib, axloqiy tushunchalarni tushunishga va ularni hayotga qo'llashga yordam beradi. O'zaro hurmat, yordam, halollik va ma'suliyatni o'ragatishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Леонтьев Д. А. Психология смысла. Природа, строение и динамика смысловой реальности. М.: Смысл, 2003. 445 с.
2. Jumanazarov U. A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.
3. Azimova N.E. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi (Pedagogik yo'nalishdagi fanlarni o'qitish misolida). Ped. fan. fal. dokt. (PhD). ... dis. – Toshkent: 2012. – 178 bet.
4. Islomova N, Mirsoatova D. Interfaol usullar asosida o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2020.
5. Karimov N. Hadis va hikmatlardan tarbiya jarayonida foydalanish va ularning ta'lim jarayonida qo'llanishi "Экономика и социум" №5(120)-1 2024
6. Niyozov G'. Ahmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. - T.: NOSHIR, 2011.
7. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671
8. Хайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.
9. С.А. Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Science and Education. 1(9). 458-461